



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 29 avgust

№ 1820

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2023/2024 o‘quv yili uchun qabul kvotasini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 29 avgustdagi xulosasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2023/2024 o‘quv yili uchun qabul kvotasi **154** (bir yuz ellik to‘rt) ta qilib belgilansin.

Shundan:

Umumiy kvota: 126 (bir yuz yigirma olti) ta

Jinoyat huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:	40 (qirq) ta;
Fuqarolik huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:	40 (qirq) ta;
Iqtisodiy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:	24 (yigirma to‘rt) ta;
Ma‘muriy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:	22 (yigirma ikki) ta;

Qo‘shimcha kvota: 28 (yigirma sakkiz) ta

Jizzax, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlaridan hujjat taqdim qilgan talabgorlar uchun qo‘shimcha 4 tadan:	16 (o‘n olti) ta;
Xotin-qizlar uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha 3 tadan:	12 (o‘n ikki) ta.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 25 maydagi 1797-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

X. Yodgorov